



YOMG'IR OBRAZINING RAMZIYLIGI VA INSON RUHIYATI BILAN UYG'UNLASHUVI

Rustamjon Umrzoqov

FarDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Karimova Mahliyoxon

FarDU filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8049673>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Murod Mansur qalamiga mansub "Yigitning gunohi" hikoyasidagi tabiat hodisalarining ramziy ma'no tashishi va qahramon psixologizmi bilan uyg'unlashish tahliliga bag'ishlangan. Tabiat hodisalari anglatayotgan ma'no bilan tasvirlayotgan ma'no o'rtasidagi xilma-xilliklar tahlilga tortilib, bu orqali ramziylik va uyg'unlashuv hodisalari aks ettirilgan.

ANNOTATION

This article is devoted to analysis of the symbolic transport of natural phenomena and their harmony with the psyche of the hero in the story of "Yigitning gunohi" written by Murod Mansur.

Kalit so'zlar: psixologizm, ramz, obraz, detal, badiiyat, badiiy muhit, syujet, uslub, mahorat, peyzaj.

Key words: psychologism, symbol, image, detail, poetic, poetic condition, plot, method, proficiency, landscape.

KIRISH

Yozma adabiyotda yomg'ir oddiy tabiat hodisalaridan farqli o'laroq, muayyan estetik funktsiya bajaruvchi detal, obraz yoki biror-bir psixologik holatni vujudga keltiruvchi peyzaj vazifasini o'tay boshlaydi. Shu jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, yomg'ir tabiat hodisasini ham detal sifatida, ham obraz sifatida asarlarda alohida ahamiyat kasb etganini ko'rishimiz mumkin.

Yomg'ir – deyarli barcha ijodkorlarning sevimli peyzaj tasviri hisoblanadi. Yomg'irning ezilib, shivalab, bosib, shig'alab, savalab, sharros quyib yoki jala ko'rinishida yog'ishi badiiy asarlarda ko'plab uchraydi. Ushbu peyzaj tasviri adiblar nasrining ritmini belgilab berayotgandek taassurot qoldiradi. Ana shunday kayfiyat ifodalovchi yomg'ir obrazi aks etgan hikoyalardan biri bevosita Murod Mansur qalamiga mansub "Yigitning gunohi" hikoyasidir. Ushbu adib qalamiga mansub asarlarda yomg'ir obrazi o'ziga xos ma'no jilolariga ega. Yozuvchi qahramonlar ruhiyati bilan tabiat hodisasini uyg'unlikda tasvirlashi, inson taqdiri, hissiy kechinmalarini, o'ychan xayollarini qog'ozga tushirish uchun yomg'ir obrazidan foydalangan. Bundan tashqari, Murod Mansur nasrida





yomg'ir obrazining simvolik, ruhiy tahlil darajasiga chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Yomg'ir Murod Mansur ijodida shunchaki tabiatdagi mavsumiy o'zgarish, tabiat injiqligi yoki yabiiy jarayon sifatida qaralmaydi, balki yomg'ir obrazi ushbu ijodkor asarlarida psixologik vosita, qahramon ruhiyatiga uyg'un yoki qarama-qarshi peyzaj tasviri sifatida aks etadi. Yomg'ir – qahramon ruhiyatining ramziy timsoli sifatida ko'rinish beradi. Bundan tashqari, yomg'ir Murod Mansurning ijodida asarni yakunlovchi muhim badiiy vosita sanaladi. Misol qilib oladigan bo'lsak, Murod Mansurning “Yigitning gunohi” hikoyasi aynan shu tariqa yakunlanadi.

Dastlab asar nomiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bir oddiy ishchi yigitning qandaydir gunoh ish sodir etgani anglashiladi. Hikoyaga epigraf sifatida esa Abdulla Qahhorning quyidagi so'zlari keltirilgan: “Ajantadagi tosh saroyda Buddaning tosh haykali bor. Bu haykalga chiroqni o'ng tomondan tutsangiz, Budda tabassum qilganday, chap tomondan tutsangiz yig'layotganday ko'rinadi”.

Hikoya quyidagicha boshlanadi: “Mashina kutilmaganda ingranib-g'ijirlab taqqa to'xtadi.

-Tushing, tushib keting! Cho'lda adashtirib ketmasimdan tushib qoling!”¹

Hikoya bosh qahramoni yigit va bir ishchi qiz o'rtasidagi qisqa tortishuvdan so'ng yigit mashinadan tushishi va bo'lib o'tgan tortishuvning har bir tafsilotini eslash tasviri asarning kirish qismi sanaladi. Shu joyda ajoyib peyzaj tasviri mavjud: “ Quyosh esa kunbotarda betartib yastanib yotgan to'q kulrang bulutlarning chetini kaptar qoniga bo'yab tashlagan. O'sha tomondan esayotgan namxush shamol chuchmal yer hidinimi, nima balolar hidini olib keladi. Xuddi yaqin bir joyda yomg'ir tomchilab o'tayotganday...”

Shunda yigit barcha tafsilotlarni xotiriga keltirdi, ya'ni o'tkinchi mashina bilan stansiyagacha yetib olishni maqsad qilgani va shu orada bir mashina to'xtab, ichidan “doim ko'rib yuradigan, lekin e'tibor berib hech gaplashmagan” shofyor qizning “chiqa qoling” degan gapini esladi. Ular birgalikda yo'lga tushishdi, lekin “bemahal” yo'lga chiqqan yigit bilan qiz o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'ldi:

“- Bemahalda yo'lga chiqibsiz?

- Ketadigan odam tezroq dab bo'lgani ma'qul-da.

- Odamlar kelyapti-ku, siz ketasizmi? – Qiz tinchlikmi o'zi demoqchidek o'smoqchiladi.

¹ Murod Mansur “Yigitning gunohi” –T., “Ma'naviyat”: 2003, 137-bet





- Kimlar kelardi, koshki bilmasam, -yigit boshliq bilan gap talashib, aytishib qolgani esiga tushib yana zardasi qaynadi. –Biroviga mo'may pul kerak. Birovi gazetalar yozgandek “qalb amri bilan ulug' xayrli ishlar” qilyapti o'zicha. Lekin hech kim gunohi azimga botayotgani bilan ishi yo'q...

- Tushunmadim. Qanaqa gunohi azim? – Qiz ko'zlarini piriqatdi.

- Bitta suv ombori quraman deb qancha odamlarni bevatan qilayotganingiz, butun-butun qishloqlarni, mozorlarni buzib ko'chirayotganingiz-chi? O'tgan odamlarning ruhini bezovta qilish gunohi azim bo'lmay, nima? Birortasi g'ing demasa-ya. Sizlarda o'zi yurak yo'q. bamisoli robotsizlar.”

Mana endi yigitning gunohi fosh bo'ldi: bildirgan e'tirozi, o'tganlar ruhini oyoqosti qilmaslik haqida kuyinishi chinakam gunoh edi va shu gunoh sabab u ishini tashlab ketdi. Qiz ham o'sha boshliqlar siyosatining tarafdori bo'lgani uchun yigitning gaplari ma'qul kelmadi va yigitni cho'l o'rtasida mashinadan tushirib yubordi. Shu payt yigit yuziga nafasni qaytaruvchi iliq shamol urildi va uning xayollari to'z'g'ib: “ Bo'ronda qolib ketmasam go'rga edi” degan xayol o'tdi. Tabiat hodisalari ham yigit ruhiyatiga monand, ya'ni osmonni qora bulut qoplab, tez qorong'ulik cho'kishi, girdob ko'tarilib, barcha narsalarni osmon-u falakka olib chiqib ketishi yigit taqdiri, psixologizmi bilan uyg'un. Yuqorida qizga voqeani tushuntirish jarayonida bevosita bo'ron singari sabablarni ko'kka olib chiqqani ayni peyzaj bilan bir xil kayfiyat uyg'otadi. Bundan keyin bo'ron turib, yigitning beretkasini uchirib ketadi, beretka ortidan quvib esa chamadonini qayerda qoldirganini yodidan chiqaradi. Bo'ron avj olgandan avj olib yigit noiloj bo'ronga orqa qilishga majbur bo'ladi. Ushbu hikoya Sobiq tuzum hukmronlik qilgan davrni tasvirlaydi, shu jihatdan har bir tabiat tasviri qandaydir ramzni o'zida mujassamlashtiradi. Yigit ortga yura boshlagach, “shunday erkinlik bilan jala quyib berdiki, atrofda cho'l yomg'irining po'latrang devoridan bo'lak hech nimani ko'ra olmadi”.

Hikoya voqealari sho'rolar davrida yuz berayotganini inobatga olib shuni aytish mumkinki, davr va tuzum bilan bog'liq ravishda ateistik qarashlar, milliy-madaniy qadriyatlarni oyoqosti qilish, minglab yillik tarixni, ajdodlar xotirasini toptash, allaqanday suv ombori qurish barobarida bir millatning o'zligini unuttirish, ko'zini bo'yashga urinishlar hikoyaning bosh mazmuniy g'oyasini tashkil etadi. Shu millatning taqdiri esa oddiy ishchi yigitning “gunohi” misolida ochiq lanadi.

Yigit “bemahal” , ya'ni qorong'ida yo'lga tushdi, xuddi millatimizning hayoti erksizlik oqibatida zulmatga cho'mgani kabi. Yigit haqiqatni aytdi, otabobolar xotirasini toptagisi kelmadi, xuddi erk uchun qurbon bo'lgan jadidlar,





millatparvarlar kabi. Xayrixohlik bildirib, mashinasida olib ketgan qiz kabi millatimiz uchun o'z maqsadi yo'lida "xayrixoh" bo'lganlar topildi, lekin oxiri sarob bo'lib chiqdi, aro yo'lda tashlab ketishdi. Endi esa peyzaj tasviriga qaytamiz. Yigit mashinadan tushishi bilan bo'ron oldi nafas qaytaruvchi iliq shamol esdi. Bu oldinda turgan o'zgarishning ilk darakchisi edi. Yigit haqiqatni aytdi, ota-bobolar xotirasini toptagisi kelmadi, xuddi erk uchun qurbon bo'lgan jadidlar, millatparvarlar kabi. Xayrixohlik bildirib, mashinasida olib ketgan qiz kabi millatimiz uchun o'z maqsadi yo'lida "xayrixoh" bo'lganlar topildi, lekin oxiri sarob bo'lib chiqdi, aro yo'lda tashlab ketishdi. Endi esa peyzaj tasviriga qaytamiz. Yigit mashinadan tushishi bilan bo'ron oldi nafas qaytaruvchi iliq shamol esdi. Bu oldinda turgan o'zgarishning ilk darakchisi edi. Bundan tashqari, bo'ron oldi yuz beradigan g'alati sukunat yoyildi va ko'z ochib yumguncha cho'lni qorong'ulik bosdi. G'alati sukunat bu xalqimizning eski tuzum va yangi tuzum oldida yo'l topolmay qolgani, ko'nishga, ko'nikishga mahkum mash'um taqdirining, soqov tilining, erksiz yuragining aks-sadosi edi. Sukunatdan so'ng esa girdob ko'tarildi, bu xalq ongining o'sishi, o'z haq-huquq va erkinliklari uchun kurashning, o'zgarishlar hosil qlishning qulay fursati kelganligidan dalolat beradi. Bu peyzaj tasviridan so'ng, butun cho'lni sutdek yoritib chaqmoq chaqdi-yu, momaqaldiroq guldurab o'tdi. Bu boshlanayotgan o'zgarishlarning suronidan, yillar davomida ichga yutilgan dard-alamlarning, adolatsizliklarning, ota-bobolar ruhi chirqirashining, yillar davomida yutilgan safro-yu sarob og'rig'ining aks-sadosi o'laroq jarang sochdi. Bundan tashqari, bo'ron boshlanib, bir zumda hamma yerni chang-to'zonga burkab yubordi, shu tufayli yigit shamolga orqa o'girib turishga majbur bo'ldi. Ushbu tabiatdagi o'zgarishlarni shubhasiz, oqimga bo'ysunish, kuch to'plash uchun ozroq tanaffus qilishga o'xshatishimiz mumkin. Lekin shunday sukunatning ortida albatta, bir yaxshilik, yorug' kunlarga bo'lgan ishonch tuyg'usi egallaydi. Darhaqiqat, shundan so'ng shunday erkinlik bilan jala quyib berdi. Tabiat hodisasi bilan bog'liq ushbu jarayondan ma'lum bo'ladiki, yomg'ir yog'ishi bilan chang-to'zon bosiladi. Ushbu hodisa "Suv qanchalik loyqalanmasin bir kun tinadi" maqoli bilan bog'liqlik kasb etadi. Bundan kelib chiqadiki, Sobiq tuzum siyosati qanchalik suronli, mudhish hodisalarga boy bo'lmasin, baribir bir kun millatimizni emin-erkin, o'ziga xon, o'ziga bek bo'ladigan paytlari kelishiga ishora beradi. "Yomg'ir hamon chelaklab quyar, yigitning ust-boshi shalabbo bo'lib borar, o'zi taqdirga tan berib, tek qotgan edi". Har bir davrning, har bir zamonning o'z voqea-hodisalari bo'lgani bois, o'sha davr odamlari ma'lum muddat aynan o'sha holatga ko'nikishga majbur bo'ladi, eng yagona yo'l –





ko'nikish bo'ladi. Bosh qahramonimizda ham aynan shu holat yuz bermoqda, ya'ni u taqdirga tan berishdan o'zga chora topa olmadi. Aynan shu payt arslon kabi ijirg'anib, o'nqir-cho'nqirlar osha bir mashina keldi-da, yigitning yonginasiga kelib to'xtaydi. Umid uchqunlari alanga olgan yigit tezlik bilan mashina yoniga boradi va ruxsat so'ramasdan mashinaga o'tirib oladi, tanish chehraga ko'zi tushgan yigit bir zum serrayib oldi va kabina ostidagi chamadonini ko'rib qoladi. U minnatdorchilik bildirishni ham, bildirmaslikni ham bilmay bir zum angrayib qoldi. "Jala beomon quyur, go'yo bu olamning g'uborlarini bir yo'la yuvib ketmoqchi bo'lar edi". Mana msalaning asosiy negiziga yetib borishimiz uchun yo'l ochildi: ya'ni yomg'ir bir vosita, ikki yosh o'rtasidagi gina-kuduratning yuvilishi, unutilishiga ishora, xuddi yomg'ir yer yuzini yuvib, g'uborlardan poklagani kabi. Lekin "ular urishgan odamlarday hamon jim borardilar. Gaplari ko'p-u, aytolmaydilar. G'ururlarimi, nimadir yo'l bermaydi. Ammo ichlarida bir-birlari bilan olishib boradilar, yon bermaydilar". Bu dunyoda hamma o'zi uchun haq, hammaning o'z haqiqati bor. O'sha aqidaga, o'sha fikrlarga ergashib umrguzaronlik qiladi. Ushbu ikki yosh ham shaxsiy fikriga ega, bir-biriga yon bosmaydigan, o'zining gaplarini haqiqat deb hisoblaydigan xilga mansub. Shu bois ham bir-birini tan olmaydi, ichida haqiqat ekanligini anglasa-da, sirtiga chiqarmaydi. Shundan so'ng atrofni poyezd vokzalining charog'on nurlari yoritib yubordi. Yigit ko'zlangan manziliga yetib kelgan edi. Yigit "rahmat sizga, yaxshi qoling"- deb mashinadan bir ta'zim qildi-yu tushib ketdi. Qiz esa: "Yaxshi boring"- deb unga ilkis qaradi. Ovozi ham bir g'alati titrab ketdi. Ko'zlari esa namlanib keldi. Buni yigit chamadonini pastga olib tushib ketgani bois ilg'amadi. "Qiz o'pkasi to'lib kelib, boshini rulga tiragancha qoldi. Keyingi daqiqada esa, uning yelkalari ko'tarilib tusha boshladi. Tashqaridagi jala hali tinadiganga o'xshamasdi"...

Hikoya shunday prolog bilan yakunlanadi. Qiz ko'z yoshlariga monand jala ham tinay demasdi. Bundan tashqari, haqiqatni anglab, bila turib inkor etish iz qalbini yaralardi. "Eng og'ir kurash bu – aql va yurak o'rtasidagi kurashdir. Qay biri g'olib bo'lishidan qat'iy nazar, mag'lub o'zing bo'lasan"- deb ta'kidlagan edi O'tkir Hoshimov. Millatimiz taqdirida ham aynan shunday hodisa yuz berdi: siyosatning oqilona emasligi, mahkumlarning begunohligini bila turib, o'zini kar, soqov, ko'r holiga solishga majbur bo'ldi. Aytasa tili, aytmasa dili kuyadigan ushbu vaziyatda hamma shirin jonini o'yladi, qarshi chiqishga botina olmadi, qarshi chiqqanlarni esa xoinlikda ayblab, hatto hayotidan mahrum qilish holatigacha olib bordi. Hikoyada ham qiz yigitning haqligini bilsa-da, o'z aqidalaridan, SSSR ga sodiqlik ruhida tarbiyalangan xulqidan voz kecha olmadi.





U o'z taqdirini sho'ro zamonining puch g'oyalariga bag'ishladi, nurli kelajakni, barqaror hayotni sho'ro siyosatchilarining aldamchi g'oyalariga ishonib, o'zini, o'zligini, milliy an'ana va qadriyatlarini ro'yolarga almashdi. Balki shuning uchun ham yong'ir kabi uning ko'z yoshlari tinmagan, O'ZLIK atalmish ramz ostidagi bosh qahramonimiz – Yigit ham orqa-oldiga qaramay, “millat”, ya'ni qizni, yoinki, barcha ishchilarni tark etdi. O'zligini yo'qotgan odam esa “odam” maqomidan ham mahrum, ruhsiz jasad kabi taassurot uyg'otadi. Qiz va ishchilar o'zbek millatining ramzi, yigit o'zlik ramzi, tabiatdagi barcha hodisalar esa yangi kunga, bo'lajak o'zgarishlarga, ayniqsa, mustaqillikka ishora qiladi. Yozuvchining mahorati ham, kelajakni oldindan bashorat qila olish qobiliyati ham aynan ushbu hikoyada o'zining yaqqol ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Doniyorova Sh., Sh. Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi, f.f.n.diss...,T.,2000
2. Gegel. Estetika// Sharq yulduzi, 2014, 2-son, 134-bet.
3. Imomova G., Hikoyada badiiy sintez va ramziy tasvir, Sharq yulduzi. 2005-yil, 2-3-fasl.
4. Karimov N., Nasr baxshisi. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.11-bet.
5. Kenjayeva P., Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tamoyillari. Fan. Nom. Diss. – T. 2008, 12-13-bet.

